MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINI OSHIRISHNING INTEGRATSIYALASHGAN MEXANIZMLARI (NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA).....	1055
Gulyamov Ulug'bek G'afurovich	
BUDJET TIZIMIDA JISMONIY SHAXSLARDAN UNDIRILADIGAN SOLIQ TUSHUMLARINI PROGNOZLASHTIRISHNING EKONOMETRIK YONDASHUVLARI	1059
Babayev Shavkat Bayramovich	
ELEKTRON TIJORATNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH MASALALARI	1067
Aripov Ulug'bek Bahodirovich	



BOJXONA YIG'IMLARINING UNDIRUVCHANLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARDAN SAMARALI FOYDALANISH.....	1072
Sarmanov Orifjon Adiljonovich	



O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA SHARIAT TAMOYILLARIGA ASOSLANGAN BANKLAR FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH AMALIYOTI ("TRASTBANK" XAB MISOLIDA)

Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

"Bank ishi" kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada islom moliyasi tamoyillariga asoslangan lizing va moliyaviy ijara xizmatlari orqali bank aktivlarini diversifikatsiyalash, murobaha asosida biznes subyektlarini moliyalashtirish orqali kredit risklarini 10–15 foizgacha kamaytirish, «yashil texnologiyalar lizingi» mexanizmini joriy etish hamda xalqaro islomiy moliya institutlari liniyalarini iqtisodiyot tarmoqlari kesimida samarali joylashtirishning iqtisodiy samaradorligi asoslab beriladi. «Trastbank» XAB va «Trast Muomalat» MCHJ amaliyoti misolida statistik ko'rsatkichlar, moliyaviy natijalar va institutsional yondashuvlar tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, islomiy moliyaviy instrumentlar O'zbekiston bank tizimida aktivlar sifati, risklarni boshqarish, daromadlilik va moliyaviy inklyuzivlikni oshirishning muhim strategik vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: islom moliyasi, islomiy bank, ijara, murobaha, yashil texnologiyalar lizingi, sukuk, bank aktivlari, diversifikatsiya, kredit riski.

Abstract. This scientific article substantiates the economic efficiency of diversifying bank assets through leasing and financial leasing services based on the principles of Islamic finance, reducing credit risks by 10-15 percent through financing business entities on the basis of murabaha, introducing the "green technology leasing" mechanism, and effectively placing lines of international Islamic financial institutions across sectors of the economy. Statistical indicators, financial results, and institutional approaches are analyzed using the example of the practice of "Trustbank" JSC and "Trust Muomalat" LLC. The results of the study show that Islamic financial instruments serve as an important strategic tool for improving asset quality, risk management, profitability, and financial inclusion in the banking system of Uzbekistan.

Key words: Islamic finance, Islamic banking, lease, murabaha, green technology leasing, sukuk, bank assets, diversification, credit risk.

Аннотация. В данной научной статье обосновывается экономическая эффективность диверсификации банковских активов посредством лизинга и услуг финансового лизинга на основе принципов исламского финансирования, снижения кредитных рисков на 10-15 процентов за счет финансирования бизнес-субъектов на основе мурабахи, внедрения механизма «лизинга зеленых технологий» и эффективного размещения линий международных исламских финансовых институтов в различных секторах экономики. Статистические показатели, финансовые результаты и институциональные подходы анализируются на примере практики АО «Трастбанк» и ООО «Траст Муомалат». Результаты исследования показывают, что исламские финансовые инструменты служат важным стратегическим инструментом повышения качества активов, управления рисками, рентабельности и финансовой инклюзии в банковской системе Узбекистана.

Ключевые слова: исламские финансы, исламское банковское дело, лизинг, мурабаха, лизинг зеленых технологий, сукук, банковские активы, диверсификация, кредитный риск.

KIRISH

Jahon moliya tizimida islomiy moliya institutlari so'nggi o'n yilliklarda muqobil, barqaror va axloqiy moliyaviy tizim sifatida jadal rivojlanmoqda. Global islomiy moliyaviy aktivlar hajmi 2025-yilga kelib 4 trillion AQSh dollaridan oshgani, 2026-yilda esa 5 trillion dollarga yetishi prognoz qilinayotgani ushbu sektorning iqtisodiy



ahamiyatini keskin oshirmoqda. Islomiy banklar real aktivlarga asoslangan moliyalashtirish, foyda va zararlarni adolatli taqsimlash hamda foizsiz operatsiyalar orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda yuqori samaradorlik ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham bank sektorini diversifikatsiyalash, aholining moliyaviy inklyuzivligini oshirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va real sektorni qo'llab-quvvatlash maqsadida islomiy moliya instrumentlarini joriy etish dolzarb masalaga aylangan. Prezident farmonlari, mikromoliyalashtirish to'g'risidagi qonunlar hamda islom bankchiligi bo'yicha yangi huquqiy tashabbuslar ushbu tizimning institutsional asoslarini shakllantirmoqda.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda islomiy bank amaliyotlarini rivojlantirishning to'rtta innovatsion ilmiy yo'nalishi asosida bank tizimining barqarorligi, risklarni boshqarish samaradorligi va iqtisodiy diversifikatsiyaga ta'sirini baholash.

Tadqiqot vazifalari:

- Islomiy lizing va moliyaviy ijara xizmatlarining bank aktivlariga ta'sirini baholash;
- Murobaha xizmatlari asosida kredit risklari pasayishini aniqlash;
- Yashil texnologiyalar lizingining iqtisodiy samaradorligini tahlil qilish;
- Xalqaro islomiy kredit liniyalarining sektorlar bo'yicha joylashtirish samaradorligini baholash.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Islom moliyasi tamoyillariga asoslangan bank faoliyatini rivojlantirish masalasi xalqaro ilmiy adabiyotlarda keng va chuqur o'rganilgan bo'lib, mazkur yo'nalishning nazariy va amaliy asoslari bir qator yetuk olimlar tomonidan shakllantirilgan. Xususan, Muhammad Umer Chapra islomiy moliya tizimini adolat, risklarni bo'lishish va real iqtisodiyot bilan uzviy bog'liqlik tamoyillariga asoslangan muqobil model sifatida talqin qiladi. U 2000-yilda chop etilgan tadqiqotlarida an'anaviy foizga asoslangan tizimning makroiqtisodiy nomutanosibliklarni kuchaytirishini asoslab, islom moliyasi esa moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilishini ta'kidlaydi.

Shuningdek, Zamir Iqbal va Abbas Mirakhor tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar islomiy bank tizimining institutsional asoslari, moliyaviy instrumentlari va risklarni boshqarish mexanizmlarini chuqur tahlil qiladi. Ular 2011-yilda e'lon qilingan ishlarida islom moliyasining asosiy ustunligi sifatida aktivlar bilan ta'minlangan moliyalashtirish, spekulativ operatsiyalarning cheklanishi va moliyaviy shaffoflikning oshirishini ko'rsatadi. Bu jihatlar bank tizimining barqarorligini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Rodney Wilson tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa islom banklari faoliyatining global rivojlanish tendensiyalari, ayniqsa Yaqin Sharq va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlaridagi tajribalar o'rganilgan. U 2009-yilda islomiy moliya institutlarining kengayishi investitsiya oqimlarini diversifikatsiya qilish hamda xalqaro moliya bozorlarida yangi imkoniyatlar yaratishini qayd etadi. Shu bilan birga, muallif normativ-huquqiy bazaning mukammal shakllanmaganligi ayrim davlatlarda tizim rivojlanishini sekinlashtirayotganini ham tan oladi.

Islom moliyasining huquqiy va islom moliyasiga muvofiqlik jihatlarini Mahmoud A. El-Gamal tomonidan batafsil o'rganilgan. U 2006-yilda chop etilgan tadqiqotida zamonaviy islomiy moliya amaliyotida ayrim instrumentlar formal jihatdan islom moliyasi talablariga mos kelgan bo'lsa-da, iqtisodiy mohiyati bo'yicha an'anaviy moliyaviy vositalardan keskin farq qilmasligini tanqidiy nuqtayi nazardan tahlil qiladi. Bu esa islomiy bank tizimini rivojlantirishda sifat jihatidan chuqurroq transformatsiya zarurligini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, Habib Ahmed islomiy moliya tizimida risklarni boshqarish va moliyaviy barqarorlik masalalariga alohida e'tibor qaratadi. U 2010-yilda olib borgan tadqiqotlarida islomiy banklar uchun likvidlikni boshqarish vositalarining yetishmasligi muhim muammo ekanligini qayd etadi hamda bu borada maxsus moliyaviy instrumentlarni ishlab chiqish zarurligini asoslaydi.

Monzer Kahf esa islomiy bank tizimining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini tahlil qilib, ushbu modelning asosiy ustunligi sifatida real sektorni qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy adolatni ta'minlash imkoniyatlarini ko'rsatadi. U 2004-yilda o'z tadqiqotlarida islom moliyasining nafaqat moliyaviy, balki ijtimoiy institut sifatida ham muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi.

So'nggi yillarda Hossein Askari va uning hammualliflari tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar islomiy iqtisodiyotning amaliy joriy etilish darajasini baholashga qaratilgan. Ular 2015-yilda ishlab chiqilgan "Islamicity Index" orqali mamlakatlarda islomiy iqtisodiy tamoyillar qanchalik amalga oshirilayotganini baholashga urinadi va natijalar ko'plab musulmon mamlakatlarida ushbu tamoyillar to'liq tatbiq etilmayotganini ko'rsatadi.

Yuqoridagi ilmiy qarashlar tahlili shuni ko'rsatadiki, islomiy bank tizimini rivojlantirish nafaqat islom moliyasi talablariga mos moliyaviy instrumentlarni joriy etish, balki institutsional muhitni takomillashtirish, huquqiy bazani mustahkamlash, professional kadrlar tayyorlash va moliyaviy infratuzilmani rivojlantirishni ham talab etadi. Ayniqsa, xalqaro tajriba islomiy moliya tizimi muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun kompleks yondashuv zarurligini yaqqol namoyon etadi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada quyidagi ilmiy usullardan foydalanildi:

1. Qiyosiy tahlil: Saudiya Arabistoni, Buyuk Britaniya, Malayziya va O'zbekiston islomiy moliya tajribasi o'zaro taqqoslandi.

2. Statistik tahlil: «Trastbank» XAB, «Trast Muomalat» MCHJ hamda xalqaro islomiy moliya institutlari ko'rsatkichlari o'rganildi.


3. Trend tahlili: 2021–2025-yillar davomida bank aktivlari, omonatlar, lizing hajmi va loyihalar sonining dinamikasi baholandi.

4. Institutsional yondashuv: huquqiy, tashkiliy va moliyaviy infratuzilma omillari kompleks tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar

An'anaviy bank tizimida aktivlarning kreditlashga yuqori darajada bog'liqligi kredit risklari, likvidlik muammolari va sektorlararo konsentratsiyani kuchaytiradi. Shu sababli quyidagi strategik yo'nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi:

1. Aktivlarni lizing va moliyaviy ijara orqali diversifikatsiyalash;
2. Murobaha asosida kredit risklarini kamaytirish;
3. Yashil iqtisodiyot uchun islomiy lizing mexanizmlarini yaratish;
4. Xalqaro islomiy moliya institutlari kapitalini samarali tarmoqlarga yo'naltirish (1-rasm).



1-rasm. Islomiy lizing va moliyaviy ijara orqali aktivlar diversifikatsiyasi samaradorligi¹ («Trast Muomalat» MCHJ)

Diagramma ko'rsatkichlariga ko'ra, 2024-yilda aktivlar bilan bog'liq risk darajasi va lizing hamda moliyaviy ijara ulushi deyarli teng bo'lib, 100% darajada shakllangan. 2025-yilning 1-aprel holatiga kelib esa aktivlar bilan bog'liq risk darajasi pasayib, taxminan 85% ga tushgan, aksincha lizing va moliyaviy ijara ulushi oshib, 110% ga yetgan.

«O'zgarish» ko'rsatkichlari shuni ko'rsatadiki, risk darajasi kamaygan, bu esa aktivlar sifati yoki risklarni boshqarish tizimi yaxshilanganini anglatishi mumkin. Shu bilan birga, lizing va moliyaviy ijara ulushining oshishi korxona faoliyatida ushbu moliyalashtirish instrumentlarining ahamiyati ortib borayotganini bildiradi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, «Trast Muomalat» MCHJda islomiy lizing va moliyaviy ijara xizmatlarini rivojlantirish natijasida:

- Aktivlar bilan bog'liq risk darajasi 15% ga kamaygan;
- Aktivlar tarkibida lizing va moliyaviy ijara ulushi 10% ga oshgan;
- Bank aktivlari tarkibi diversifikatsiyalashgan;
- Real aktivlarga asoslangan moliyalashtirish kengaygan.

Iqtisodiy ahamiyati:

- Kredit portfeli konsentratsiyasi kamaydi;
- NPL darajasi pasaydi;
- Aktiv sifati yaxshilandi;
- Daromad manbalari barqarorlashdi.

Ijara modeli bank uchun aktiv ustidan egalikni saqlab qolish orqali risklarni kamaytiradi. Bu esa kredit qaytmasligi holatlarida zararlarni minimallashtiradi (1-jadval)².

¹ Bank ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

² Mamatov B., Yusupov Sh. Bank tizimida risklarni boshqarish. – Toshkent: Fan, 2022.

1-jadval. Murobaha asosida kredit risklarini kamaytirish natijalari³

Ko'rsatkich	Avvalgi holat	Joriy holat	Natija
Kredit zararlar hajmi	100%	85–90%	-10–15%
Zaxira xarajatlari	Yuqori	323 mln so'mga kamaygan	Ijobiy
Loyihalar ulushi	52%	52%	Barqaror

Mazkur ko'rsatkichlar murobaha asosidagi moliyalashtirish mexanizmining bank faoliyatidagi risklarni kamaytirish va moliyaviy samaradorlikni oshirishdagi ijobiy natijalarini ifodalaydi. Tahlillarga ko'ra, kredit zararlar hajmi 10–15 foizga qisqarib, umumiy risk darajasi sezilarli pasaygan. Bu esa murobaha instrumentining savdo asosidagi shaffof moliyalashtirish modeli sifatida kredit xavfini kamaytirishda samarali ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, zaxira xarajatlarning 323 mln so'mga kamaygani bankning ehtimoliy yo'qotishlarga ajratadigan mablag'larini qisqartirib, resurslardan yanada samarali foydalanish imkonini yaratgan. Loyihalar ulushining 52 foiz darajada barqaror saqlanib qolishi esa ushbu instrumentning amaliyotda yuqori talabga ega ekanligini bildiradi.


Murobaha asosidagi moliyalashtirish biznes subyektlari uchun samarali vosita sifatida quyidagi natijalarni berdi:

- Kredit risklari bo'yicha zararlar 10–15% ga kamaydi;
- Zaxira xarajatlari 323 mln so'mga qisqardi;
- Moliyaviy intizom oshdi;
- Savdo asosidagi moliyalashtirish shaffofligi kuchaydi.

Amaliy samaradorlik: «Trast Muomalat»da 2025-yil holatiga jami loyihalarning 52% murobaha asosida moliyalashtirilgan.

Muhim afzalliklari:

- Foizsiz savdo modeli;
- Xarajat va foyda oldindan aniq;
- Kredit monitoringi soddalashadi;
- Kichik biznes uchun qulaylik (2-rasm).

2-rasm. "Yashil texnologiyalar lizingi" dinamikasi⁴

Ushbu rasm tahlili shuni ko'rsatadiki, lizing va moliyaviy ijara hajmi 2024-yil 1-aprel holatidagi 29,36 mlrd so'mdan 2025-yil 1-aprelga kelib 64,76 mlrd so'mga yetgan bo'lib, bu 35,4 mlrd so'mlik mutlaq o'sish va 20,4 foizlik ijobiy o'sish sur'atini ifodalaydi. Bunday sezilarli o'sish, avvalo, moliyaviy instrumentlar tarkibining kengayayotgani, xususan, «yashil texnologiyalar lizingi» kabi innovatsion moliyalashtirish mexanizmlarining joriy etilishi bilan bevosita bog'liqdir.

Mazkur tendensiya shuni anglatadiki, iqtisodiyotda ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan investitsiyalarni moliyalashtirishda lizing instrumentlarining roli ortib bormoqda. Ayniqsa, islom moliyasi mexanizmlariga asoslangan lizing operatsiyalarining joriy etilishi moliyaviy inklyuzivlikni kengaytirib, yangi

³ Bank ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

⁴ Bank ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan



investorlar va mijozlar qatlamini jalb qilish imkonini bermoqda. Bu esa, o'z navbatida, moliya bozorida raqobatni kuchaytiradi va xizmatlar sifatining oshishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, diagrammada aks etgan o'sish moliyaviy institutlar faoliyatining diversifikatsiyalashayotganini ham ko'rsatadi. Lizing operatsiyalarining kengayishi banklar va ularga aloqador moliyaviy tashkilotlarning daromad manbalarini ko'paytirib, ularning umumiy moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, real sektor subyektlari uchun uzoq muddatli va nisbatan qulay moliyalashtirish manbalarining paydo bo'lishi ishlab chiqarish hajmlarining oshishiga, yangi ish o'rinlarining yaratilishiga hamda texnologik yangilanish jarayonlarining jadallashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bundan tashqari, o'sish sur'atining ijobiy dinamikasi mamlakatda investitsion muhit yaxshilanayotganini, moliyaviy infratuzilma rivojlanayotganini hamda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining samarali ishlayotganini anglatadi. Xususan, «yashil iqtisodiyot»ga o'tish strategiyasi doirasida ekologik toza texnologiyalarni moliyalashtirishga ustuvor ahamiyat berilayotgani ushbu ko'rsatkichlarning o'sishida muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Qayta tiklanuvchi energiya va ekologik texnologiyalarni moliyalashtirish maqsadida joriy etilgan ushbu model quyidagi natijalarni berdi:

- Lizing hajmi 43,2 mlrd so'mdan 64,76 mlrd so'mga oshdi;
- O'sish hajmi 20,4% ni tashkil etdi;
- Ekologik investitsiyalar faollashdi;
- Yashil iqtisodiyotga mos moliyalashtirish shakllandi.

Moliyalashtirilgan asosiy yo'nalishlar:

- Quyosh panellari;
- Energiya tejovchi uskunalari;
- Maxsus texnika;
- Ekologik ishlab chiqarish vositalari.

Strategik ahamiyati:

- ESG tamoyillariga moslik;
- Uzoq muddatli investitsiya;
- Tashqi investorlar uchun jozibadorlik;
- Barqaror rivojlanish strategiyasi bilan uyg'unlik (2-jadval).

2-jadval. "TRASTBANK" XABda Islom korporatsiya liniyalarini o'zlashtirish holati bo'yicha⁵

Xorijiy kredit liniyasi	Xorijiy kredit jalb qilingan sanasi	Umumiy summasi	O'zlashtirilgan mablag'	Loyiha soni	Hozirgi kunda mavjud bo'lgan moliyalashtirish summasi	O'zlashtirish foizi
Xalqaro Islom Savdo-Moliya Korporatsiyasi (Saudiya Arabiston)	12.11.2018	4 000 000,00	4 000 000,00	4	0	100%
	29.07.2020	8 000 000,00	8 000 000,00	8	0	100%
	01.09.2021	15 000 000,00	33 889 809,00	68	0,00	225,93%
	19.03.2025	20 000 000,00	13 787 986,00	25	6 212 014,00	68,94%
Jami		47 000 000,00	59 677 795,00	105	6 212 014,00	
Xususiy Sektorni Rivojlantirish Bo'yicha Islom Korporatsiyasi (Saudiya Arabistoni)	19.07.2018	7 000 000,00	7 000 000,00	4	0,00	100,00%
	15.09.2021	10 000 000,00	10 000 000,00	8	0,00	100,00%
	29.12.2022	20 000 000,00	20 000 000,00	7	0,00	100,00%
	26.11.2024	30 000 000,00	17 071 040,00	10	2 500 000,00	56,90%
Jami		67 000 000,00	54 071 040,00	29	2 500 000,00	
Jami		114 000 000,00	113 748 835,00	134	8 712 014,00	

Mazkur jadval «Trastbank» XAB tomonidan xalqaro islomiy moliya institutlari — International Islamic Trade Finance Corporation va Islamic Corporation for the Development of the Private Sector kredit liniyalari orqali jalb qilingan mablag'larning samaradorligini aks ettiradi. Tahlillarga ko'ra, bank tomonidan jami 114 mln

⁵ Bank ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan



AQSh dollari miqdorida xorijiy islomiy moliya resurslari jalb qilingan bo'lib, shundan 113,7 mln AQSh dollari o'zlashtirilgan. Bu deyarli to'liq o'zlashtirish darajasini ko'rsatadi va bankning xalqaro moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligi yuqori ekanligini tasdiqlaydi.

Xalqaro Islom Savdo-Moliya Korporatsiyasi liniyalari bo'yicha 47 mln dollarlik resurs jalb qilinib, 105 ta loyiha moliyalashtirilgan. Ayrim bosqichlarda o'zlashtirish darajasining 225,93 foizga yetgani bankning resurslardan yuqori talab asosida keng foydalanilganini ko'rsatadi. Xususiy sektorni rivojlantirish bo'yicha Islom Korporatsiyasi liniyalari orqali esa 67 mln dollarlik mablag' jalb qilinib, 29 ta loyiha moliyalashtirilgan.

Umumiy natijalarga ko'ra:

- 134 ta loyiha amalga oshirilgan;
- Xalqaro islomiy moliya resurslari real iqtisodiyot tarmoqlariga samarali yo'naltirilgan;
- Bankning investitsion imkoniyatlari kengaygan;
- Tashqi moliyaviy manbalar hisobiga iqtisodiyotning savdo, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarini qo'llab-quvvatlangan.

Shunday qilib, xalqaro islomiy kredit liniyalarini jalb qilish va samarali joylashtirish mexanizmi O'zbekiston bank tizimida investitsion faollikni oshirish, bank daromadlilikini kuchaytirish hamda islomiy moliya instrumentlarini kengaytirishning muhim strategik vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

«Trastbank» XAB tomonidan:

- ITFCdan 47 mln AQSh dollari;
- ICDdan 67 mln AQSh dollari;
- Jami 114 mln AQSh dollari jalb qilindi.


Tarmoqlar kesimida taqsimot:

- Savdo: 40%
- Ishlab chiqarish: 48%
- Xizmatlar: 12%

Natijalar:

- 134 loyiha moliyalashtirildi;
- 2023-yilda 690,8 mlrd so'm daromad;
- 2024-yilda 755,4 mlrd so'm daromad;
- 2025-yil 1-aprel holatiga 276,3 mlrd so'm daromad.

Bankda jalb qilingan kredit liniyalarini sohalar bo'yicha tartiblab chiqqanimizda, asosan uchta sohaga e'tibor qaratilgan (3-rasm):



3-rasm. "TRASTBANK" XABda Islom korporatsiya liniyalarini o'zlashtirish sohalar bo'yicha⁶

Diagramma ma'lumotlariga ko'ra, umumiy tushum 84 154 835,61 birlikni tashkil etib, uning asosiy qismi ishlab chiqarish va savdo-sotiq faoliyati hissasiga to'g'ri keladi. Xususan, ishlab chiqarish sohasi 40 797 363,50 birlik (48%) bilan eng katta ulushni egallagan bo'lib, bu korxona faoliyatida asosiy daromad manbai aynan ishlab chiqarish ekanligini ko'rsatadi. Savdo-sotiq esa 33 249 360,11 birlik (40%) bilan ikkinchi o'rinda turib, u ham muhim daromad keltiruvchi yo'nalish sifatida namoyon bo'ladi. Xizmat ko'rsatish sohasi nisbatan kamroq ulushga ega bo'lib, 10 108 112,00 birlikni yoki jami tushumning 12 foizini tashkil etadi.

Umuman olganda, diagramma korxona daromadlarining asosiy qismi ishlab chiqarish va savdo faoliyatiga tayanayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, xizmat ko'rsatish yo'nalishida o'sish uchun sezilarli imkoniyatlar mavjud. Kelgusida xizmatlar sektorini rivojlantirish, diversifikatsiyani kuchaytirish va qo'shimcha qiymat yaratuvchi xizmatlarni kengaytirish orqali umumiy daromad hajmini yanada oshirish mumkin.

O'zbekiston uchun asosiy strategik natijalar

1. Bank tizimi barqarorligi oshadi: islomiy instrumentlar kredit risklarini kamaytirib, aktivlar sifatini yaxshilaydi.

6 Bank ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan



2. Moliyaviy inklyuzivlik kuchayadi: foizsiz xizmatlar diniy sabablarga ko'ra bank xizmatlaridan chetda qolayotgan qatlamlarni jalb qiladi.

3. Yangi investitsion manbalar yaratiladi: xalqaro islomiy moliya institutlari bilan hamkorlik tashqi kapital oqimini kengaytiradi.

4. Yashil iqtisodiyot qo'llab-quvvatlanadi: islomiy lizing ekologik va energiya samarador loyihalar uchun samarali instrument bo'lib xizmat qiladi.

Shu o'rinda bir narsani aytib o'tishimiz kerakki, O'zbekiston Respublikasining 2026-yil 27-martdagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O'zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy etishga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-1126-son⁷ Qonuni imzolandi va bu qonun 28-iyundan kuchga kirishi belgilandi. Ushbu qonun orqali yuqoridagi muammolar bartaraf etiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur ilmiy tadqiqot O'zbekiston Respublikasida islom moliyasi tamoyillariga asoslangan bank faoliyatini rivojlantirishning nazariy, metodologik va amaliy jihatlarini chuqur o'rganish orqali mamlakat bank tizimini modernizatsiya qilishning yangi institutsional modelini shakllantirishga xizmat qiladi. Olib borilgan kompleks tahlillar natijasida islom moliyasi instrumentlarini milliy bank amaliyotiga joriy etish bank aktivlari sifati, risklarni boshqarish samaradorligi, daromadlilik ko'rsatkichlari, investitsion faollik va iqtisodiy diversifikatsiyani ta'minlashda muhim strategik vosita ekanligi ilmiy asoslandi.

Tadqiqot natijalari ko'rsatdiki, an'anaviy bank tizimida aktivlarning asosan foizli kreditlash operatsiyalariga yuqori darajada bog'liqligi bank sektorida kredit riski, likvidlik riski va portfel konsentratsiyasining ortishiga sabab bo'lmoqda. Shu nuqtayi nazardan, islom moliyasi tamoyillariga asoslangan ijara, moliyaviy lizing, murobaha, sukuk va boshqa real aktivlar bilan ta'minlangan moliyalashtirish mexanizmlarining joriy etilishi bank aktivlari tarkibini sezilarli darajada diversifikatsiyalash imkonini beradi. Xususan, «Trast Muomalat» MCHJ misolida o'tkazilgan amaliy tahlillar natijasida islomiy lizing va moliyaviy ijara xizmatlarini kengaytirish orqali aktivlar bilan bog'liq risk darajasi 15 foizgacha kamaygani, aktivlar tarkibida lizing ulushi oshgani hamda real sektor bilan integratsiyalashgan barqaror moliyaviy model shakllangani aniqlandi.

Bundan tashqari, murobaha asosidagi moliyalashtirish mexanizmining bank kredit portfelidagi muammoli aktivlar ulushini kamaytirishdagi roli alohida ilmiy ahamiyat kasb etdi. Tadqiqot davomida murobaha asosidagi savdo moliyalashtirish modeli orqali kredit zararlarining 10–15 foizga qisqargani, banklarning ehtimoliy yo'qotishlar uchun ajratadigan xazina xarajatlari sezilarli darajada kamaygani hamda biznes subyektlari uchun shaffof, oldindan aniq xarajatli moliyalashtirish muhiti yaratilgani isbotlandi. Bu esa murobaha xizmatlari nafaqat islom moliyasi talablariga mos, balki tijorat banklari uchun moliyaviy risklarni boshqarishning amaliy va samarali vositasi ekanligini ko'rsatadi.

Tadqiqotda «yashil texnologiyalar lizingi» mexanizmining joriy etilishi alohida innovatsion yo'nalish sifatida asoslab berildi. Mazkur model ekologik toza texnologiyalar, energiya tejoychi uskunalar, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va barqaror ishlab chiqarish vositalarini moliyalashtirishda yangi iqtisodiy imkoniyatlarni yuzaga keltiradi. Statistik ma'lumotlar asosida yashil texnologiyalar lizingi hajmining sezilarli o'sishi mamlakatda ESG tamoyillariga mos moliyalashtirish tizimining shakllanayotganini ko'rsatadi. Shu orqali islomiy moliya nafaqat bank sektori barqarorligini oshirish, balki O'zbekistonning ekologik va innovatsion rivojlanish strategiyasiga ham xizmat qilishi aniqlandi.

Xalqaro islomiy moliya institutlari bilan hamkorlik masalasi tadqiqotning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida bank tizimining investitsion salohiyatini oshirishdagi rolini ko'rsatdi. «Trastbank» XAB tomonidan ITFC va ICD kabi nufuzli xalqaro moliya institutlaridan jami 114 mln AQSh dollari miqdoridagi kredit liniyalarining jalb qilinishi, ularning deyarli to'liq o'zlashtirilishi va iqtisodiyotning savdo, ishlab chiqarish hamda xizmat ko'rsatish tarmoqlariga samarali joylashtirilishi bank resurs bazasini kengaytirish bilan birga milliy iqtisodiyotning real sektorini qo'llab-quvvatlashda muhim omil bo'lib xizmat qilgani ilmiy jihatdan asoslandi. Mazkur tajriba O'zbekiston bank tizimining xalqaro islomiy kapital bozorlariga integratsiyalashuv imkoniyatlari yuqori ekanligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, islomiy bank xizmatlarini rivojlantirish aholining moliyaviy inklyuzivligini oshirishda ham katta salohiyatga ega. Diniy qarashlari sababli an'anaviy foizli bank xizmatlaridan foydalanmayotgan aholi qatlamlari uchun islom moliyasiga mos moliyalashtirish xizmatlarining joriy etilishi bank sektoriga yangi mijozlar segmentini jalb qilish, jamg'armalar bazasini kengaytirish hamda iqtisodiy faollikni kuchaytirish imkonini beradi. Bu esa bank tizimining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tahlillar davomida O'zbekistonda islomiy bank tizimini rivojlantirish uchun zarur yo'nalishlar — huquqiy bazani yanada takomillashtirish, soliqqa oid mexanizmlarni uyg'unlashtirish, islom moliyasi standartlari

⁷ <https://lex.uz/uz/docs/-8099403>



bo'yicha professional kadrlar salohiyatini oshirish, moliyaviy savodxonlik darajasini yuksaltirish hamda raqamli infratuzilmani rivojlantirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan bo'lsa-da, O'zbekiston Respublikasining 2026-yil 27-martdagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O'zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy etishga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-1126-son⁸ Qonunining qabul qilinishi ushbu yo'nalishlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish uchun mustahkam huquqiy asos yaratadi. Mazkur qonun islomiy banklar faoliyatining normativ-huquqiy asoslarini belgilab berish, xalqaro standartlarni joriy etish, investorlar ishonchini oshirish va yangi moliyaviy institutlar tashkil etilishiga xizmat qilishi bilan alohida strategik ahamiyat kasb etadi.

Kelgusida O'zbekiston bank tizimida islomiy moliya instrumentlarini rivojlantirish quyidagi ustuvor yo'nalishlarni talab etadi:

- islomiy bank faoliyati bo'yicha alohida institutsional tizimni shakllantirish;
- sukuk bozori va islomiy kapital bozorlarini rivojlantirish;
- yashil moliyalashtirish instrumentlarini kengaytirish;
- raqamli islomiy bank xizmatlarini rivojlantirish;
- xalqaro islomiy moliya markazlari bilan integratsiyani chuqurlashtirish.

Umuman olganda, tadqiqot yakunlari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasida islom moliyasi qoidalariga asoslangan banklar faoliyatini rivojlantirish bank tizimini transformatsiya qilish, aktivlar sifatini yaxshilash, risklarni boshqarish samaradorligini oshirish, iqtisodiyotning real sektorini qo'llab-quvvatlash, investitsion jozibadorlikni kuchaytirish va uzoq muddatli barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashning istiqbolli strategik yo'nalishi hisoblanadi.

Shunday qilib, islomiy bank amaliyotlari O'zbekiston uchun nafaqat muqobil moliyaviy tizim, balki zamonaviy iqtisodiy taraqqiyot, xalqaro moliya bozorlariga integratsiya va milliy bank tizimi barqarorligini oshirishning kompleks innovatsion modeli sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur yo'nalishni izchil rivojlantirish mamlakat moliya sektorini yangi bosqichga olib chiqib, O'zbekistonning global islomiy moliya makonidagi raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ergasheva S.T. Islom moliyasi va uning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2024.
2. Mamatov B., Yusupov Sh. Bank tizimida risklarni boshqarish. – Toshkent: Fan, 2022.
3. Xolbekov A.A. O'zbekistonda moliyaviy inklyuzivlikni rivojlantirish masalalari. – Toshkent, 2023.
4. Rasulov N. Islom bankchiligi: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Innovatsiya, 2021.
6. Muhammad Taqi Usmani Islamic Finance: Principles and Practice. – Karachi: Maktaba Ma'ariful Qur'an, 2019.
7. Zeti Akhtar Aziz Islamic Finance and Global Stability. – Kuala Lumpur, 2020.
8. Abbas Mirakhor & Zamir Iqbal An Introduction to Islamic Finance: Theory and Practice. – Wiley, 2017.
9. Hossein Askari et al. Islamic Finance: Risk, Stability and Growth. – Singapore: Wiley, 2015.
10. Rodney Wilson Islamic Banking and Finance. – London: Routledge, 2018.
11. Islamic Development Bank. Official website: www.isdb.org
12. International Islamic Trade Finance Corporation. Official website: www.itfc-idb.org
13. Islamic Corporation for the Development of the Private Sector. Official website: www.icd-ps.org
14. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. www.cbu.uz
15. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. www.lex.uz



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 4 (2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
